




Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-noyabr oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,9 % o'sdi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 29,2 foizni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 38,8 % ga o'sdi.



*2019 yil yanvar-noyabr oyida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda,
chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)*


2018 yilning shu davriga nisbatan Toshkent shahrining hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Olmazor tumani 123,9 % Yakkasaroy tumani 113,5 %, Shayxontohur tumani 115,2 %, Sergeli tumani 108,0 % Yunusobod tumani 106,0 %, da qayd etilgan bo'lsa, ayrim tumanlarda jumladan Uchtepa tumani 100,1 % nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etilgan.

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-noyabr

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 1 705,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 108,4 % ga o'sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-noyabr oyida ovqatlanish tashkilotlarining jamiga nisbatan ulushi




Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Yunusobod 15,5 %, Shayxontohur tumani 14,1 %, Yakkasaroy tumani 5,9 %, Sergeli tumani 15,9 %, tashkil etgan bo'lsa, Yashnobod tumani 5,1 %, Uchtepa tumani 5,6 % va Bektemir tumani 2,8 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 29,2 % ni tashkil etib, chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor tumani (17,5 %), Shayxontohur tumani (11,7 %), Olmazor tumani (6,4 %) va Uchtepa tumani (9,7 %), bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir etdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi (jamiga nisbatan, foizda)





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-noyabr

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 12 353,0 ming. so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Bektemir tumani (81781,4 ming.so`m), Chilonzor tumani (24 809,7 ming.so`m), Yakkasaroy tumani (19 972,0 ming.so`m), Mirobod tumani (20 941,3 ming.so`m) Uchtepa (12 353,0 ming.so`m), kuzatildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


	Ming so'm	O'sish sur'ati
Toshkent sh	13683,6	107,9
Uchtepa	12 353,0	100,1
Bektemir	81 781,4	100,3
Yunusobod	11 721,3	106,0
Mirzo- Ulug'bek	7 282,8	103,0
Mirobod	20 941,3	107,2
Shayxontohur	11 833,8	115,2
Olmazor	6 105,8	123,2
Sergeli	15 966,1	108,0
Yakkasaroy	19 972,0	113,5
Yashnobod	9 107,6	100,1
Chilonzor	24 809,7	110,9



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-noyabr

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi (o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan, foizda)




2019 yil yanvar-noyabr oyida chakana savdo tovar aylanmasi Toshkent shahar bo'yicha aholi jon boshiga 13 683,6 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,9 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-noyabr oyida o'tgan yilga nisbatan Toshkent shahrida eng yuqori o'sgan Olmazor tumani 123,2 % Yakkasaroy tumani 113,5 %, Mirzo-Ulug'bek tumani 103,0 %, va Mirobod tumani 107,2 % tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha o'sish sur'ati eng kam ko'rsatkichlar Bektemir tumani 100,3%, Yashnobod tumani 100,1 % qayd etilgan.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-noyabr

Kichik korxonalar va Mikrofirmalar ulushi (jami chakana savdo aylanmasidan)



Kichik korxonalar va mikrofirmalar jami chakana savdo tovar aylanmasida ulush eng katta bo'lgan tumanlar: Mirobod tumani (45,1 %), Chilonzor tumani (24,8 %), Mirzo-Ulug'bek tumani (40,6 %) Sergeli tumani (41,1 %). Bu tumanlar Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga past ko'rsatkichlarga ega tumanlar, Uchtepa tumani (19,2 %) Bektemir tumani (9,8%) hissasiga to'g'ri kelgan.



2019 yil yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo

2019 yil yanvar-noyabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 34 700,1 mlrd. so`mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 110,8 % ni tashkil qildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar 27 365,2 mlrd. so`mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 78,9 % ni tashkil qildi.





Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p ulushga ega tumanlarga Shayxontohur tumani (96,0 %), Uchtepa tumani (92,6 %), Bektemir tumani (93,2 %) va Mirobod tumani (86,6 %) eng past ulush esa Yakkasaroy tumani (72,8 %), Olmazor tumani (69,9 %) va Sergeli tumani (65,6 %) to'g'ri kelgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi jami savdoga nisbatan (%)






TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-noyabr


Ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar Mirzo-Ulug'bek tumani 12,8 %, Olmazor tumani 12,8 %, Yakkasaroy tumani 12,6 %, Mirobod tumani 11,0 %, Chilonzor tumani 12,1 % tashkil etgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda ba'zi bir tumanlar ya'ni Yashnobod tumani 7,3 %, Sergeli tumani 7,8 %, Uchtepa tumani 5,2 %, Bektemir tumani 1,5 %, jamiga nisbatan eng past ko'rsatkichlarni qayd etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulgurji tovar aylanmasidagi jamiga nisbatan ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Ulgurji tovar aylanmasida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi eng yuqori Mirzo-Ulug'bek tumani 10,0 %, Mirobod tumani 9,6 %, Yakkasaroy tumani 9,2 %, Olmazor tumani 9,0 % va Chilonzor tumani 9,0 %, hamda eng kam ko'rsatkichni Bektemir tumani 1,4 % qayd etgan.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-noyabr

Umumiy tovar aylanmasining 10 920,7 mlrd so'mi yakka tartibdagi tadbirkorlar tashkil qilgan bo'lsa, 2018 yilning shu davriga nisbatan 7,3 % ga ko'paygan. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 31,5 % ga teng bo'ldi.

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo'shgan holda) tarkibi, foizda (2019 yanvar-noyabr holatiga)


Jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar 41.0

Kichik korxonalar 29.8

Yirik korxonalar 29,2




Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar Sergeli tumani 34,4 %, Olmazortumani 30,1 %, Yakkasaroy 27,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda ba'zi bir tumanlar ya'ni Shayxontohur tumani 4,0 %, Uchtepa tumani 7,4 %, Bektemir tumani 6,8 % ko'rsatkichlarni qayd etdi.




Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar Chilonzor tumani 48,4 %, Yakkasaroy tumani 52,4 %, Olmazor tumani 39,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda Bektemir tumani 4,1 % Uchtepa tumani 9,8 % Yunusobod tumani 13,6% eng past ko'rsatkichlarni qayd etdi.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



TOSHSTAT

Ташки иқтисодий фаолият ва
савдо статистикаси бўлими